Matematika fanidan fakultativ dars mashg’ulotlari olib borilmoqda

Ma’lumki, yurtimizda 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida matematika sohasi belgilangan edi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shu yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori bu boradagi sezilarli qadam bo’ldi. Sababi ushbu qaror bilan mamlakatimizda ta’limning barcha sohalarida matematika fani darslari va matematika faniga oid o’quv adabiyotlar sifatining oshishi, matematika faniga qiziquvchi yoshlarning tobora ko’payishi, iqtidorli yoshlarni saralab olish mexanizmini tashkil etib, ularni ixtisoslashtirilgan maktablarga, keyinchalik oliy ta’lim muassasalariga va ilmiy maktablarga qamrab olish masalalarini samarali yechishga imkoniyat beradi. Shu bilan birga, maktabgacha, umumiy o’rta, o’rta maxsus, professional, oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy muassasalar o’rtasidagi yaqin hamkorlikni ta’minlovchi yaxlit tizimni shakllantirishga, umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’lim muassasalarida matematika fanlarini o’qitish sifatini oshirishga, hududlarda matematika faniga ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini rivojlantirishga, ta’lim berishning onlayn platformasini yaratish va amaliyotga tatbiq etishga, masofadan o’qitish tizimi samaradorligini oshirishga katta e’tibor qaratilgan.

Ushbu qaror ijrosini ta’minlash maqsadida O’zR FA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Qoraqalpog’iston bo’linmasi tomonidan Qoraqalpog’iston Respublikasining Qo’ng’irot tumanidagi matematika faniga ixtisoslashtirilgan maktab bilan yaqin hamkorlik o’rnatildi. Bu hamkorlikning asosiy maqsadlari sifatida mazkur ta’lim muassasasida matematik ta’limni takomillashtirish, matematika faniga qiziquvchi, iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni qo’llab-quvvatlashni ko’rsatish mumkin.

Bo’linmaning Qoraqalpog’iston Respublikasi matematika ta’limini rivojlantirishga yo’naltirilgan istiqbolli rejasi va hamkorlikda tuzilgan dars rejasiga muvofiq, Matematika instituti Qoraqalpog’iston bo’linmasi ilmiy xodimlari Qo’ng’irot tumanidagi 34-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan maktabda onlayn fakultativ dars mashg’ulotlarini Zoom platformasi yordamida olib borish yo’lga qo’yildi. Mazkur onlayn fakultativ mashg’ulotlarda maktab o’quv rejasidan tashqari mavzularda ma’lumotlar keng yoritilib, nostandart masalalarni yechishga yo’naltirilmoqda. Bunday yondashuv o’z navbatida maktab o’quvchilarida fanga bo’lgan qiziqishning ortishiga, ularning qobiliyati va iqtidorini rivojlantirishga sabab bo’ladi deb umid bildiramiz.

Nurjanov B. O.

Matematika instituti Qoraqalpog’iston bo’linmasi

katta ilmiy xodimi